

NOTIQ ULKAN BIR DARAXT, NOTIQLAR UNING SHOXLARIDIR

Risolat Mustayeva, Toshkent

davlat pedagogika universiteti

ning ikkinchi bosqich talabasi

Anotatsiya; Ushbu maqolada notqlik shartlari, notqlik san'ati va madaniyati haqida so'z yuritiladi. Notiqning va ahli jamiyat azolari uchun kitobning o'rni qanday ekanligi dalillar bilan keltiriladi. Voizlar va voizlik yo'sinida so'z boriladi. Pedagog uchun suhandonlikning ahamiyati qanday ekanligi ochib beriladi.

Tayanchso'zvaiboralar; Notiqning nutqi, oratir, voiz va voizlik, notqlik san'ati, tinglovchi, kitob, ta'sirchanlik, davra, suhandon, nutq, notiq.

Maftunkor, shirali ovoz ko'ngillarni tortuvchi sohalardan biri bu notqlik bo'lsa kerak. Chunki notqlik deganda tasavvurimizga dastlab ikki jumla kalomni ifodador hamda ta'sirdor qilib so'zlagan, ayniqsa, yoqimli ovozda fikrni aniq va tushunarli holda tinglovchiga yetkazib beruvchi kasb egasi keladi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, bugungi kunda notqlik sohasi, garchi u juda qadim davrlardan buyon ahamiyat kasb etib kelayotgan bo'lsa-da, ushbu sohaning mohir egasi bo'lishni orzu qilganlar oramizda ko'plab uchraydi. Bugun ushbu ma'lumotlarga tayangan holda notqlikning sir-asrorida kitob mutolaasining o'rni haqida fikr yuritishni maqsad qildik.

„Kitoblar sizni minglab asr avval dunyodan o'tgan
dohiyalar bilan uchrashtiradi.

Rene Dekart

Go'zallikni his qilmaydigan, yoki qadrlamaydigan inson kam bo'lsa kerak dunyoda, har qaysi notiqda bu ikki xususiyat birlashib nutq va tafakkurga singib ketgan bo'ladi. Mazkur sir-sanoatlar gavdalangan voizgagina buyuklik va suyaklik nisbati beriladi. Nafis so'zlovchilarni nafosat egalari desak mubolag'a bo'lmaydi. Notqlik bu san'at va iste'dotdir. Notqlik san'atiga nazar solsak, ilk bor Yunoniston, Rim, Fillipin, O'rta Osiyoda rivojlangan. Hozir ham notqlikka e'tibor susaygani yo'q. Qadimda voizlik deb atalgan ushbu sohaning ixlosmandlari ko'p bo'lgan. Ayniqsa, qirolik, podshohliklarda notiqlar chuqur izzat-ikromda ardoqlanishgan. Ko'pgina Sharq va G'arb mutafakkirlari ijod qilish bilan birga o'z ijod sarchashmalaridan ixlosmandlarini, tinglovchilarini o'zlarining yoqimli shirali ovozlari bilan ham baxramand qilishgan. Alisher Navoiy, Zamahshariy, Bobur kabi allomalarimiz voizlik bobida juda ibratli bo'lganlar. Qolaversa mohir sarkarda Sohibqiron Amur Temur ham chiroyli nutq egasi, hamda yetuk notiq bo'lgan. Binobarin nutqiy go'zalligi, notqlik qobiliyati bilan butun bir qo'shinni muvaffaqiyatli boshqargan. Olam ahlini hayrat barmog'ini tishlashga majbur qilgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibin Sino kabi ulug'allomalarimiz serqirra voiz bo'lishganligi tarix zarvaralarida keltirilgan. Ular nutqnind inson hayotidagi o'rni haqida ko'plab fikrlarni bayon qilganlar. Masalan, „Abu Nasr Farobiy“, „Fozil odamlar shahri“ asarida inson fozilligining muhim belgilaridan biri sifatida quvvai notiq (nutq quvvati)ni ajratadi. Uning fikricha, inson dunyoga kelishi bilan o'zini boqadigan quvvatga ega bo'ladi. Bu g'izolantiruvchu quvvat sanaladi. Undan so'ng inson o'z takomili yo'lida turli quvvatlarni qo'lga kiritadi. Masalan, mutoxiyat quvvati (hayol qilish, umumlashgan obrazlar yaratish), aql quvvati va boshqalar. Insonning olamini bilish jarayonida notiq quvvatining xizmati katta ekanligini takidlaydi. Bevosita voizlar haqida gap ketganida

Yunoniston(Gretsiya),Rim notiqclarini ham sanab o'tish joizdir.Qadimda Yunon va Rim notqlik makatabi faoliyat olib borgan.Jumlardan Rim notiqclari; Setsiron,Katon,aka-uka Grakxlar,Mark Antony kabi oratorlar Rimni notqlik bobida ham tanitgan.Setsironning fikricha, „Har qanday notiqning asosiy maqsadi-tinglovchining zavqini uyg'otib,o'ziga moyil qilishdan iborat”.Bundan anglash mumkinki sohir ovoz sohibi va sohibasi bo'lgan voizga tinglovchilar doim chanqoq bo'lmog'og'i lozim. „Ko'plab ilm va ilmlilarning beshigi”bo'lgan Yunonistonda Sofist Gorgias,Lisiy,Isokrat,Demosfen,Perekil kabi yetuk oratirlar yashab ijod qilgan.Qadimda Yunon va Rim notqlik makatabi ham faoliyat yuritgani o'sha shahar xalqlarining madaniyati yuksak ekanligidan darak beradi.

Notiq deganimizda nutq obyekti hisoblangan biror mavzudagi fikr, xabar yoki ma'lumotni tinglovchini xabardor qilishi, muayyan masala yoki mavzuni anglashi hamda e'tirof etishi uchun qaratilgan maqsadli nutqiy harakatdir. Notqlik muayyan kasb sohasi bo'lsa-da, biroq notqlikni eployolgan har qanday kishi faoliyat yuritishi mumkin. Masalan, chiroyli, shirali ovoz sohibi bo'libgina qolmasdan, tinglovchilar auditoriyasini o'ziga qarata olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lgan har qanday soha vakili bu ishni bajarishi mumkin. Suhandonlar, jurnalist-reportyorlar, shifokorlar, sudyalalar, psixologlar, o'qituvchilar, tarbiyachilarni misol qilishimiz mumkin. Aytish joizki, mazkur sohalar ichida o'qituvchilik zimmasida notqlikning ahamiyati beqiyosdir. Chunki o'qituvchi dars mobaynida o'quvchilarga saboq berishining zamirida yangi ma'lumotni yetkazib, o'quvchining shu ma'lumotni o'zlashtirib olishiga e'tibor qaratarkan, bu ishda ovozning ham o'z o'rnini mavjud. Ya'ni ovozda shira, ta'sir, joziba, qat'iyat, talabchanlik unsurlari bo'lmas ekan, demak o'qituvchi har qancha bilimlarga ega bo'lmasin, o'quvchisi ongiga ma'vzuni yetkazib bera olmaydi. Natijada, ushbu ma'lumotlar har qancha boy va muhim bo'lmasin, o'quvchi uchun vaqtni behuda sarfalanishiga olib keladi. Shunday ekan, o'qituvchi kasbining muhim omili bu o'z ovozi ustida muntazam ishlash, buning uchun notqlik sir-asrorlaridan boxabar bo'lmog'i lozim.

Har bir kishi nutq madaniyatini mukammal o'zlashtirishi mumkin.Ammo har bir shaxs,san'atkor notiq bo'lavermaydi.Go'yo notiq suv tubida yotgan chig'anoq ichidagi durni qidirayotgan g'avvozg'a o'xsheydi.U izlanuvchan va bunyotkor bo'lmog'i lozim.Haqiqiy g'avvozg'ina durni topa oladi.Notiq so'zlarni o'z o'rnida mahorat bilan qo'llay olsa ipga durni tergandek bo'ladi.Notiq-o'zi yoqimli,so'zi-yuqumli bo'lmog'i darkor.U ma'noli so'zi bilan barcha tinglovchining ma'naviy chanqog'ini qondirsin,nutqiy go'zalligi bilan sahna markazini titratsin.Shundagina u haqiqiy voizdir vaholanki unga buyuklik va suyuklik nisbati beriladi.Davraning ko'rki, davradagi mehmon va tomoshabinlarning o'zining nutqi bilan yig'ilganlarni rom qiluvchilar - suhandonlardir.Suhandon degani fors tilidan suhan – so'z, don – so'zni aytuvchi , ya'ni bundan so'zni chiroyli aytuvchi degan ma'no anglanadi. Suhandonlar ham o'qituvchidek o'z nutqida umumiylik tamoyillardan qochib, asosan, yetkazishi lozim bo'lgan fikrni xususiylik prinsipida bayon qilsagina, tinglovchi tafakkuri hamda shuuriga kirib borishiga erishadi. Masalan, tantanali marosim, tadbirlarda suhandon o'z nutqi bilan tilak va istaklarni izhor qilishi, tabriklar aytishi, she'r-nazm o'qishi kabi nutqiy xatti-harakati bilan kutilgan natijaga erisha oladi.

O'qituvchilik yoki suhandonlik kasbimi har ikkisida ham ovoz ustida muntazam ishlash – ovozni sozlash, sayqallash, muhim fikrni asoslay olish, misollar keltirish, ba'zan kuldirib, ba'zan yig'latib, ba'zan esa juda o'ylatib, yoki motivatsiya uyg'otuvchi nutqqa erishish kerak. Buning uchun qanday yondashuv kerak ya'ni degan o'rinli savol paydo bo'ladi. Albatta, kitob mutolaasi, deya javob bergan bo'lardik. Darhaqiqat, notqlikning birinchi sharti bu kitobni qo'ldan qo'ymaslikdir. Chunki kitob mutolaasi inson tafakkurini o'stirsa, boshqa bir jihatdan kishi ruhiy olamining ko'zgusiga boqa olish va uni uqiy olish malakasini oshirib boradi. Inchunun, nutqiy zeboqlik uchun muayyan eshiklarning kalitini tutqazadi;

„Kitob hayotning eng olis va qorong'u yo'llariga nur baxsh etgan afsonaviy chiroqdir”.

Andrey Upit

„Kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan va o'zining
qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga tashiyotgan
hikmat kemasidir”

Frensis Bekon

Shubhasiz, kitob orzularning baland uchishi uchun qanot bo'ladi. Kitobdan inson ma'nan, aqlan va so'z boyligining ijobiy darajada rivojlanishi uchun ozuqa olarkan, ayni paytda notiq o'z fikrining tarqoq bo'lib ketmasligi, xalq tili bilan aytganda “o'tlab ketmaslik”ning oldini oladi, hamda yetkaziluvchi axborotning bir ramkada saqlanishini o'rgatadi. Ya'ni nutqning nafaqat xushovozlik bilan bayon qilinishini, shuningdek, mazmunini saqlash uchun muayyan tartibga ham solidi. Masalan, biror fikrni bildirib turib so'zlovchi o'z hayotidan misol keltirsa, go'yo fikr asoslangandek tuyuladi, biroq bu hol tez-tez takrorlanaversa, ya'ni notiq o'z hayotidan misol keltiraversa, oqibatda so'zlovchini manman qilib ko'rsatishi mumkin. Shu bois, notiq o'z ustida ishlashi uchun ko'proq kitob o'qisa, unda turli insonlar taqdirini, psixologik holatlarini, o'ziga xos nutqiy individualliklarni kashf qilib boradi va, tabiiyki, bunday uqish natijasida, o'z nutqining sofliqi, boyligi va mantiqiylikini kamolga yetkazadi. Fransuz ma'rifatparvar adibi, ratsionalist Deni Didro bejiz ta'kidlamaganki: „Kimki kitob o'qishdan to'xtasa, bilingki, u fikrlashdan ham to'xtaydi”. Demak, kitob notiqning har qadamda tirgagidir. Notiq mazkur sohalaridagi va kitoblardagi bilimlarini o'zlashtirishi bilan bardavomdir.

Adabiyot, ona tili, jamiyatshunoslik, davlatshunoslik, madaniyatshunoslik, fonetika-grammatika, etika-estetika, logika sohaları notiqlik sa'nati va nutq madaniyatiga bog'lanib ketadi. Notiq sahnada shunchaki so'z so'zlovchi emas, balki har qanday sohadan xabardor bo'lgan aytayotgan gapining ma'nosini uqdiraoladigan, so'zi bilan qalblarni yondiraodigan sohir ma'ruzachidir. Notiq butun bir qo'shinni boshqarayotgan qo'mondonga o'xshaydi. Uning quroli so'zdir. Notiqda tashqi ko'rinish, go'zallik ham muhim o'rin tutadi. Vaholanki, ko'zga tashlanadigan uning tashqi ko'rinishi, quloq bilan tinglanadigan uning yoqimli ovozi.

Notiq qadimda voiz, orator, lektor kabi nomlar bilan atalgan. Bularning har biri alohida faoliyat bo'lib, umuman olganda chiroyli nutq so'zlovchi alohida tushunilganida esa, har birining qanday mavzularda, qayerda so'zlashlariga qarab farqlangan. Masalan, kotib, voizlar Sharq notiqlik san'atining, lector, orator esa G'arb notiqlik san'atining yo'nalishlari sanaladi. Qaysi davrda va qaysi yo'nalaishda bo'lmasin, kitobga oshno bo'lgan notiqgina haqiqiy voiz bo'la oladi. Binobarin, notiqning nutqini dilnavoz ohang hamda boy tafakkuriy mantiq bezaydi. Notiqning har bir sifati va xislati uning birinchi shioridir. Voiz samimiy, o'ziga ishongan, nutqini samarali tarbiya eta olsagina, sahna bilan yuzlashishida o'zida kuch topadi. Voiz sahnaga chiqdimi, ommaning e'tibori unga qaratiladi. Nutq sahnasida esa notiq inson ruhiyatining anglovchisiga ham aylanadi. Bunda kitobiy bilimlar va tajrib olishlar muhimdir. Vaziyat taqozosi bilan nutqini qisqa qilishi, yoki uzoq so'zlashi mumkin.

Bugun texnika asrida ekanimiz bois, notiqlikning tezkor axboriy yetkazish yo'nalishi ham o'ta jadal tus olayotgani hech kimga sir emas. Antik davrlardan yuzaga kelgan notiqlikning bugungi kunga kelib video kamera, mikrofon, dizayn kabi nutqiy maydon shiddatli tusga aylanmoqda. Bundan shunday xulosaga kelinadiki, notiqlik o'zi boqiy san'at, bugungi kun talabi bilan yangi shakl va yo'nalishlarda kengayishiga imkon ochayotgani bilan ayni paytda navqiron sohadir ham. Har qanday sharoitda bo'lmasin, notiqlikning o'z toshi-tarozisi, o'z sir-asrori mavjud, albatta. Savol-javob berilganda diqqat qilish, tinglangan ma'lumotu axborotni tez idrok qila olish, shu asosda xulosalay olish kabi shiddatli jarayonda o'zini yo'qitib qo'ymaslik bugungi kun notiqligining axborot yo'nalishi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Soʻzlab berishning zavq-u shavqidan notiqlik tugʻilarkan, notiqlik maqomini egallagan buyuk ajdodlarimizning soʻzamol, hozirjavob, kezi kelganda sukut saqlash bilan ham soʻzlay olgan buyuk isteʼdodlarini oʻzimizga maktab deb bilamiz. Yaʼni notiq ulkan bir daraxt, notiqdar uning shox-novdalaridir. Nutq mevalari, mantiq esa teran ildizidir. Biz boʻlgusi pedagog kasb egalari, notiqlik daraxtning sinmas novdasi boʻlishga erishmogʻimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Rahimboy Jumaniyozov „Notiqlik sanʼati“ 2016
2. A.Alimuhammedov „Antik adabiyot tarixi“ Toshkent 1972
3. T. Qudratov „Nutq madaniyati asoslari“ 1994
4. Deni Didro „Xizmat va fazilat tajribasi“
5. Nizomiddin Mahmudov „Nutq madaniyati“ 2007 Toshkent
6. Internet sayitlari;
7. <https://hozir.org> toshkent-davlat sharqshunoslik instituti 2017.06.08
8. <https://xs.uz> > post > kitob haqida....